

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 398+8

## SO'Z O'YINLARINING ASKIYACHILAR NUTQIDA QO'LLANILISHI

## УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВОВЫХ ИГР В РЕЧИ АСКИ

## THE USE OF WORD GAMES IN THE SPEECH ASKIYA

Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich<sup>1</sup> <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc),Maxmudova Zulayxo Numonjon qizi<sup>2</sup><sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti magistranti

## Annotatsiya

Ma'lumki, askiya san'at darajasiga ko'tarilgan va hali-hanuz o'z qiymatini yo'qotmagan janrlarda sanaladi. Xalq og'zaki ijodidagi ushbu janr tilshunoslikda so'z o'yinlari misolida o'rganiladi. Chunki askiya so'z o'yinlari asosida yuzaga keladi va unda zakiylik, hozirjavoblik, lutf, zarifona so'zlar mavjud. Ushbu maqolada askiya va askiyachilar nutqiga oid so'zlardan yuzaga chiqqan so'z o'yinlari tahlilga tortilgan. So'z o'yinlarining bir necha turlari askiya matni misolida tahlil etilib, tasniflangan.

## Аннотация

Известно, что аския относится к числу жанров, поднявшихся на уровень искусства и еще не потерявших своего значения. Этот жанр фольклора изучается в лингвистике на примере словесных игр. Потому что аския основана на словесных играх и содержит слова остроумия, быстроты, изящества и элегантности. В данной статье анализируются словесные игры, возникшие из слов, относящихся к речи аскиев и аскиевцев. На примере текста Аския анализируются и классифицируются несколько типов каламбуров.

## Abstract

It is known that askiya is among the genres that have risen to the level of art and have not yet lost their value. This genre of folklore is studied in linguistics as an example of word games. Because askiya is based on word games, and it contains words of wit, promptness, grace, and elegance. In this article, the word games that emerged from the words related to the speech of Askiya and Askiya players are analyzed. Several types of puns are analyzed and classified on the example of Askiya text.

**Kalit so'zlar:** so'z o'yinlari, askiya, askiyachilar, tagma'no, sintagmalash, tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, nutq tovushlari o'rnini almashtirish.

**Ключевые слова:** словесные игры, аския, аскиячиларс, тагмана, синтагмация, замена звука, увеличение звука, уменьшение звука, замена звуков речи.

**Key words:** word games, askiya, askiyachilars, tagmana, syntagmation, sound replacement, increase in sound, decrease in sound, replacement of speech sounds.

## KIRISH

So'z san'atimizning eng mo'jaz nuqtalari – maqol, shohbayt, latifa, askiya til bilan adabiyotni o'ziga xos tarzda birlashtiruvchi janrdir. Unda chinakam zargarona zarofat, nozik lutf-latofat, teran tagma'no bo'ladi [1, 106]. Askiyaning 2014-yili YUNESKOning representativ ro'yxatiga kiritilganligi o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzining oshishida muhim ahamiyat kasb etdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

«Askiya» arabcha so'z bo'lib, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da belgilanganidek, «ziyrak, aqlli, zehnli, qobiliyatli» ma'nolarini ifodalovchi zakiy («زكـي») so'zining ko'plik shakli azkiyo («ازكـي»)dir. Azkiyo so'zi davrlar o'tishi bilan fonetik jihatdan o'zgarib, askiya ko'rinishiga kelgan. O'z asl ma'nosini (ziyraklar, zakiyalar) mumtoz adabiyotimizda saqlagan holda, hozirgi o'zbek tilida milliy og'zaki ijod janri nomi sifatida qo'llanmoqda: «Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodining bir janri

bo'lib, unda so'z o'yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to'y-tomosh, sayl, ziyofat kabi yig'inlarda o'tkaziladi [2, 106].

"Til – bu o'yin" [3, 206] o'xshatishidan qadimgi zamonlardan buyon tilshunoslikda keng foydalanilib kelinmoqda. Ferdinand de Sossyur lisoning asosiy kategoriyalarini shaxmat o'yiniga muqobillikda ta'riflaydi (tizimlilik, ahamiyatlilik, qoida va boshqalar). Biroq "lisoniy o'yin" termini nisbatan yaqin yillarda, faylasuf L.Vitgenshteyn ishlarida paydo bo'lib, unga ko'ra, til "o'z qoidalariga ega bo'lgan o'yin" sifatida talqin etildi. Lisoniy o'yinlar – o'z ichki qoidalari va kelishuvlarga bo'ysunuvchi yaxlit va tugal kommunikatsiya tizimlari hisoblanadi. Olimning fikricha, lisoniy o'yin til birliklarining tizimli munosabatlarini maqsadli, ongli ravishda buzishga asoslangan so'zlovchi nutqiy xatti-harakatining muayyan bir turidir. U, asosan, so'zlashuv, ommabop va badiiy nutq uslublariga xosdir [4, 34]. Olimning konsepsiyasida ijodiy yondashuv, nutqiy faoliyatdan iborat lisoniy o'yin subyektiv tarzda shakllantirilgan kognitiv jarayonlar sifatida izohlanadi.

Rus tili stilistikasiga oid ensiklopedik lug'atda "lingvistik ijod sifatida, asosan, jamiyatning madaniy qatlamlariga bo'ysunadi va nutq ifoda etishning asosiy qoidalarini bilmaslikdan kelib chiqqan nutq xatosining teskarisidir" [5, 696] deya izohlangan lisoniy o'yin hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha o'rganilgan. Bu o'rganishlar til rivojining barcha davrlariga xos bo'lib, o'zaro o'yinli munosabatlar turli sohalarda namoyon bo'lib kelgan. Xususan, "o'yin" termini ko'plab ilmiy sohalarda qatori falsafa, pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi sohalarda namoyon bo'lib, turli aspektlarda o'zining funksional xususiyatlariga ega bo'lishi ta'kidlangan. Tilshunoslik sohasida so'z o'yinlarining lingvostilistik tabiati bir qator olimlar, xususan, O.Yu.Konovalova [6, 22], K.S.Baranov [7, 26], T.V.Pervak [8, 26], A.Z.Sannikov [9, 547], O.Ye.Voronichev [10, 36-40], A.A.Tereщyenkova [11, 60-54], O.V.Gladkova [12, 38-41], Yu.M.Fedorova [13, 332-337], Ye.S.Lavrentyeva [14, 169-179] kabi tilshunoslar tomonidan turli tillar misolida ochib berildi [15, 24]. Tadqiqotchilar tomonidan til o'yiniga matn shakllantirish omili sifatida qaraldi.

Tadqiqotchilar so'z o'yinlarini muayyan bir til misolida tekshiribgina qolmay, ularni turli nutq ko'rinishlarda ifodalanishiga doir izlanishlarga ham e'tibor qaratdilar. Jumladan, S.K.Loxova so'z o'yinlarini siyosiy matnlarda [16, 24], T.A.Grinada badiiy matnlarda [17, 165], O.Ye.Voronichev rus ekspressiv nutqida [18, 723], S.V.Ilyasova ommaviy axborot vositalari va reklama sohasida [19, 296], N.V.Lazovskaya reklama matnlarida [20, 22], O.A.Viktorova targ'ibot materiallari misolida [21, 182] tadqiq etadi. Shuningdek, so'z o'yinlarining ma'lum bir turlari [22, 3-8] hamda ularning muayyan bir vazifalari bo'yicha [23, 18] keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi.

So'z o'yini jahon tilshunosligining tadqiqot obyekti sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslarning diqqat markazidagi lingvostilistik muammoga aylandi.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Askiya, dastavval, so'zning botiniy, tagma'nosini topishga qaratilgan. Keyinchalik so'z o'yini asosiga qurilgan janr sifatida shakllangan. O'zbek tilshunosligida askiya matni lingvostilistik jihatdan tadqiq etilgan [3, 24].

Askiyachilik so'z san'atida milliy so'z o'yinlarimizning quyidagi turlarini uchratamiz:

**"Fonostilistik o'yin"**. Askiyachilar tomonidan nutq tovushlari maqsadli tarzda o'zgartiriladi va shu tariqa turli subyektiv munosabat bayon etiladi. Buning natijasida nutqda tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, nutq tovushlari o'rmini almashtirish va aralash turdagi fonostilistik kombinatsiyalar namoyon bo'ladi. Mas.:

*Tohirjon*: Kolxoz duradgorlari brigadalarga chiqmay, nuqul raisnikida *pol ochishadi-ya*.

*Hasanjon*: Komissiya kamchiliklarni ko'rsatgani yaxshi, ishga foydasi tegadi. Siz bo'lsangiz komissiya kelganda, o'zingizni *ponaga olasiz*.

(«Duradgorlik» payrovi. Askiya. 70-b.)

Askiyachilar nutqida so'z o'yini birinchi gapda *p* va *f* tovushlarini, ikkinchi gapda *o* va *a* tovushlarini almashtirish bilan yuzaga chiqarilgan hamda duradgorlik sohasiga oid atama (*pol* va *pona*)ni matnda ishlatish bilan payrov talabiga (payrovda mavzuga doir atamalarni qo'llash shart) amal qilingan. *Pol* va *pona* leksemalari implitsit ifoda vositasi, *fol* va *pana* so'zlari esa eksplitsit axborot tashuvchi birlikdir.

**"Urg'uli so'z o'yini"**. Askiyachilar nutqida urg'u oluvchi bo'lak birdan ortiq axborotga ega bo'ladi hamda uslubiy vazifa bajaradi:

## TILSHUNOSLIK

*Olimjon aka:* Qodirjon aka, haqqushlar osmonda parvoz qilib yursalar, aka, bag'ri qora demang yana.

*Qodirjon aka:* Osmondan uchib kelib Olimjon akaning do'ppilarini tashlaymi – *ilvosin* deb.  
(«Qushlar» payrovi. *Askiya*. 31-b.)

Olimjon akaning nutqida *ilvosin* so'zidagi urg'u joylashishi o'rniga qarab: *ilvosin* – *qo'shma fe'l (ilib olsin)*, *ilvosin* – *qarchig'aysimon qush ma'nosida* qo'llanilgan.

“**Morfologik o'yin**”: Bu o'yinning bir nechta turlari mavjud:

**1. “Juft so'zlar yordamidagi so'z o'yini”.** *Askiya* bellashuvda «raqib»lar bir-birini so'z o'yini bilan mot qilish uchun juft va takroriy shakllardan foydalanadilar. Boshqa nutq ko'rinishlarida mazkur vositalar har doim stilistik vazifa bajarmaydi, ulardan nutqni shakllantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi, xolos. Ya'ni boshqa matnlardagi juft so'z anglatgan ma'noning grammatik qimmati ustun bo'lsa, *askiya* matnida juft so'zlar stilistik maqsadda qo'llanishi bilan ahamiyatlidir. Mas., hozirgi o'zbek adabiy tilida *es-pesi* juft so'zining ikkinchi komponenti leksik ma'no anglatmaydi. «Chorvachilik» payrovida so'zlovchi (Rahmatqul) «...*es-pesi bormi bu odamning o'zi*» deya juft so'zning har ikkala qismiga ataylab leksik ma'no yuklaydi. Bunga *pes* leksemasining tibbiyot sohasidagi ma'nosi: *terida paydo bo'ladigan oq dog' va shunday kasali bo'lgan kishi* hamda so'kinish mazmunidagi *iflos, moxov* [24, 248] ma'nolari asos qilib olinadi.

Ma'lumki, *askiyachilar* payrov mavzusidan chetga chiqsa, bellashuvda yengilgan hisoblanadi. So'z ustalari o'z nutqida payrov mavzusini ochib berishda okkazonal juft so'zlarni qo'llashga harakat qiladilar. Natijada juft so'zshakllar favqulodda hosila sifatida paydo bo'ladi:

*Ibrohimjon:* Bog'da «*kishi-mishi*» yo'qmi, yana yumaloq qilib tashlamay.  
(«Uzum» payrovi. *Askiya*. 36-b.)

Juft so'zning lisoniylashmagan ushbu turi *askiyachilarning* individual uslubiga xosdir. So'z ustasi bu o'rinda *kishmish* – *mevasi maydaroq bo'ladigan uzum va shu uzumning mayizini* anglatuvchi leksemaning *i* tovushini maqsadli orttirish hisobiga uni juft so'zga aylantirgan va bu bilan *kishi* – *odam, inson (kimdir)* ma'nosini ifodalagan.

**2. “Uslubiy takrorga asoslangan so'z o'yini”.** *Askiyachilar* nutqida takrorga sintaktik-stilistik figura sifatida qarash va uni sintaktik takror ko'rinishi sifatida izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bellashuvda «raqib» ifoda uslubini takrorlash bilan kulgi qo'zg'atuvchi so'z o'yini hosil qilinadi:

*Tursunbuva:* Mana, Qodirjon ham majburiyatini bajardi, ko'rmaysizmi tili chiqib, **bit-bildiq, bit-bildiq** deb qoldi.

*Qodirjon aka:* Tursunbuvam ham xursandlar, zvenolari kamchiliklarini bitirib, planini bajarganga o'xshaydi. Ko'rmaysizmi, endi hamma yoq **sip-silliq, sip-silliq** deyaptilar.

*Tursunbuva:* Hosil to'yiga tayyorgarlik ko'ryaptilar, shekilli, qo'llariga bitta taxta ko'tarib olib **randalang, randalang**, deydilar.

*Qodirjon aka:* Yaxshi ishlaganingiz uchun mukofot chiqadimi deyman, qo'lingiz qichiyapti. Shunaqa bo'ladigan bo'lsa, qo'lingizni **tatalang-tatalang**.

*Tursunbuva:* Hosil to'yiga aloqador ham kelganmi, deyman, nafasleri ichlariga tushib, **ko'rgilik, ko'rgilik** deb o'tiribdilar.

*Qodirjon aka:* Ko'rgilik emas, Tursunbuva, ayb o'zlarida, bo'lmasa nima uchun **ko'rchilik, ko'rchilik** deydilar.

(«Paxtachilik» payrovi. *Askiya*. 19-b.)

Yuqoridagi matndan quyidagi propositiv va qo'shimcha ma'nolar anglashiladi: a) bit-bildiq, bit-bildiq – *bedonalarning sayrash ohangiga taqlid*; b) sip-silliq, sip-silliq – *hammasi yaxshi, joyida ma'nosida; orttirma darajadagi sifat*; v) randalang, randalang – *tekislamoq, silliq-lamoq*; g) tatalang, tatalang – *tirmamoq, timdalamoq*; d) ko'rgilik, ko'rgilik – *ixtiyorida tashqari holda yuz bergan ko'ngilsiz voqea*; ye) ko'rchilik, ko'rchilik – *ko'rgilik qolipi asosida yasalgan okkazonal so'z; okkazonal antonim*.

“**Sintaktik-stilistik o'yin**”. Sintaktik vositalar yordamida hosil qilinadi. Quyidagi turlari aniqlandi:

**1. “Sintagmalash o'yini”.** Sintagmalash usuli so'zlarni birlashtirish, komponentlarga bo'lish hisoblanib, sof so'z o'yiniga asoslanishi, notiqning kommunikativ niyati ataylab so'z o'yiniga joylashtirilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday so'z o'yinlarida bir qancha lingvistik

hodisalar (ohang, pauza, urg'u, omonim, omofon, omograf, paronim, ko'chim, polisemiya, polifunksionallik va hokazo) sinkretik holatda ifodalanadi:

*Mahmudjon*: Mehmonlar kelishidan ikki kun ilgari uzib qo'ygan ekansiz, ezilib qolibdi. Ijroqo'mbuva, mana buning *ham shirasi* chiqib qolibdi.

(«*Bog'bonchilik*» payrovi. *Askiya*. 40-b.)

Matnda so'zlarni mazmunan, intonatsion va sintaktik jihatdan birlashtirish evaziga birdan ortiq axborot ifodalanagan: *shira* so'zi oldidan *ham* so'zi qo'llanmasa, *shira* oddiy axborot tashuvchi birlik sifatida nutqni shakllantirishga xizmat qilar edi, xolos. So'z o'yini ham yuzaga chiqmas edi. Kontekstda illokutiv akt (yashirin ifoda) ustsegment birliklar yordamida yuzaga chiqayotgan bo'lsa-da, umumiy mazmunning sintaktik aloqa yordami bilan ifodalanayotganligi ushbu so'z o'yini usuliga faqatgina fonostilistik, fonopragmatik jihatdan emas, balki morfonologik, morfosintaktik jihatdan yondashuvni talab qiladi.

**2. "O'xshatishga asoslangan so'z o'yini"**. Quyidagi payrovda askiyachi harifi («raqibi»)ni «*boy o'g'li*»ga o'xshatish bilan ikki tomonlama tanqid ostiga olgan: *birinchidan*, uning xarakterida bo'lgan kekkayishni ko'rsatish uchun boyning o'g'liga, *ikkinchidan*, uning yoqimsizligi va befoyuzligini qushga – *boy o'g'liga* o'xshatgan:

*Aka Buxor*: Ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, nodon, muncha *boy o'g'liday* kekkayasan.

*Komil qori*: Aybimni topib gapirding lak-lak, rahmat senga...

(«*Olma-anor*», «*Parranda*» payrovlari)

### XULOSA

Askiya va uning ijrochilari nutqida ko'plab so'z o'yinlari mavjud bo'lib uning tahlilini bitta maqolaga sig'dirish, tadqiq etish biroz mushkul. Shunday bo'lsa-da, ushbu maqolada so'z o'yinlarining tasniflanishi askiya matni misolida amalga oshirildi. Askiya va uning ijrochilari nutqida yuzaga kelgan so'z o'yinlari, okkozional ma'no, kulgi qo'zg'atuvchi birliklar tahlil qilindi

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Otauli, Zargarona zarofat, teran tagma'no, <http://ziyouz.uz/film-fan/til-adabiyot/2014-05-26-13-26-06> Chop etilgan sana: 26.05.2014. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2010-yil 10-son.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2006. I jild. –B.106.
- Сосюр Ф. де Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977. – 206 с.
- Витгенштейн Л. Философские исследования//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.– М., 1985. –С. – 34.
- Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожинной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котурова, А.П.С ковородников. – 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. –С. 696.
- Коновалова О.Ю. Лингвостилистические особенности игра слов в современном английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. Москва: Изд-во МГУ, 2001. –С. 22.
- Баранов К.С. Языковая игра в немецко язычных рекламных текстах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Москва, 2011. –С. 26.
- Первак Т.В. Языковая игра в теледискурсе: лексической и стилистической аспекты (на материале немецкого комедийного телесериала «Штрюмберг»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Мятыщи, 2018. –С. 26.
- Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. Москва: Языки славян, культуры, 2002. –С. 547.
- Вороничев О. Е. О лингвостилистических особенностях каламбура и каламбурной рифмы // Начальная школа плюс До и После. – 2010. № 2. с. 36-40.
- Терещенкова А.А. Лингвостилистическая и семиотическая природа каламбура. Сборник «Риторика. Лингвистика». Смоленский государственный университет. 2016, №12. –С. 60-64.
- Гладкова О.В., Блинова М.П. Лингвостилистические особенности английского каламбура и анализ способов его воссоздания при переводе. Современные тенденции развития науки и технологий. Кубанский государственный университет. 2016, №5-4. –С.38-41.
- Федорова Ю.М., Чиликина О.Н. Лингвостилистические особенности французского каламбура и способы его воссоздания при переводе. [Актуальные вопросы филологии и переводоведения в свете современных исследований](#). Калужский государственный университет. 2017. -С.332-337.
- Лаврентьева Е.С. Трудности перевода лингвостилистических особенностей художественных текстов в рамках игровой концепции языка. Языки. Культуры. Перевод. 2013, №1, –С.169-179.
- Усолкина А. В. Языковая игра как текстообразующий фактор: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. Екатеринбург, 2002. –С.22.
- Лохова С.К. Игра слов в политическом дискурсе. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2007. –С. 24.
- Гридина Т.А. Языковая игра в художественном тексте: Монография/ Т.А. Гридина. – Екатеринбург: ГОУ ВПО «Урал. гос.пед. ун-т», 2008. –С. 165.

## TILSHUNOSLIK

18. Вороничев О.Е. Каламбур как феномен русской экспрессивной речи: Автореф. док. ... филол. наук: 10.02.01. / Вороничев Олег Евгеньевич. –Москва: Московский педагогический государственный университет, 2014. –С.723.
19. Ильясова С.В. Языковая игра в коммуникативном пространстве СМИ и рекламы/ С.В. Ильясова, Л.П. Амири. – М.: Флинта, 2009. –С. 296.
20. Лазовская Н.В. Языковая игра в рекламном дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Саратов, 2007. –С. 22.
21. Викторова О.А. Особенности поликодовых демотивационных постеров с включением языковой игры. Дисс. канд. филол. наук. –Тверь, 2016. –С. 182.
22. Ковалев Г.Ф. Ономастические каламбуры А.С. Пушкина/ Г.Ф. Ковалев// Русская речь. – 2006. – №1. – С. 3–8.
23. Болдарева Е.Ф. Языковая игра как форма выражения эмоций: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Волгоград: ВГПУ, 2002. –С. 18.
24. Dusmatov X. Askiya matning lingvostilistik tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. .... diss. avtoref. – Farg'ona, 2018.